

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TARIX FANINI O'QITISHNING AHAMIYATI****Kadirova Adolatxon Tuxtaboyevna.***Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani**7-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada maktablarda tarix fani va uni o'qitishning ahamiyati orasida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar.** *Tarix, nazariya, jamiyat, voqea-hodisa, meros, maktab, insoniyat, jarayon, faoliyat.*

Tarix fanining nazariyasini atroflicha ilmiy – nazariy va falsafiy jihatdan atroflicha ishlab chiqilishi tarix fanidan ilmiy tadqiqotlarni olib borish jarayonida ijobiy natijalarga erishish uchun mustahkam zamin bo'ladi. Bu to'g'risida tadqiqotchi Borisnyov quyidagi so'zlarni aytgan: Ushbu tadqiqotchining bu fikriga qo'shilish mumkin, chunki, tabiiyki, tarixiy tadqiqotlarning subyekti tarix fanidan yuqori saviyada ilmiy-nazariy bilimga ega bo'lishi shart. Qaysiki, tarix nazariyasida bo'shliq va mo'rtlikning mavjud bo'lishi tadqiqotchini ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga ta'sir qilishi ehtimoldan xoli bo'lmaydi.

Tarix fani — insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqea-hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o'rganadi. Tarix fani o'tmishda sodir bo'lgan jarayon va hodisalar orasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig'i va ma'nosini ko'rish imkonini beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tarix tadqiqotlari natijalariga tayanadi. Fanlararo yondashuv jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirib, o'tmishni va hozirni anglash orqali jamiyat rivoji istiqbolini ko'ra bilishdek muhim vazifani hal qiladi. "Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam tariximiz haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi, katta ma'naviyat olib ketishi zarur"- deya ta'kidlagan edi Shavkat Mirziyoyev

Boshqa fanlar kabi tarix fani ham o'z nazariyasiga ega . Tarix fani XIX asrdan mustaqil fan sifatida shakllanishi uchun zaruriy bo'lgan nazariy jihatlari shakllangan edi. Tarix fani yo'nalishida qator va mazmunan tarixni fan sifatida e'tirof etadigan nazariyalar paydo bo'ldi. Lekin tarix nazariyasi bo'yicha turli bir-birini inkor qiladigan qarashlar ham paydo bo'ldi. Bu turli munozaralarga olib keldi va hozirgacha bu munozaralar da'vom etib keladi. Bizning fikrimizcha bu munozara yana davom etaveradi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosini jahon ta'limi standartlariga javob bera oladigan ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo'lida amaliy faoliyat olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda umumiy

o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu - o'qituvchi va o'quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo'l kelishi amaliyot ko'rsatib turibdi.

Hozirgi zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi a'nanaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmog'i lozim.

Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarni mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi.

Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu“ desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fiklashini rivojlantirishga, milliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun bugungi kunning pedagog hodimlari har bir darsda qiziqarli, samarali bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish kerak.

Tarix o'qitishni tashkil deganda, tarixni o'qitish va o'quvchilarning uni urganishni tashkil qilish, ularning urganish faoliyatini o'qituvchining boshqarishiga erdam beradigan usullar, o'quvchilardagi mavjud bilimlarini ishga solish va ularni ijodiy bilishga junaltiradigan topshiriqlar tizimi h'anda talimning turli xil formalari dars, amaliy mashg'ulotlari tushuniladi. Tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi; o'quvchilarning tarix fan asoslarini tarixiy materilga mos samorali metodlarni bilish va bilimlardan foydalana bilish malakalarini puxta

uzlashtirishlari, shu assoda yangi jamiyat kishisining zaruriy sifatlarni tabiyalash o'quvchilarning tarixiy tafakkurini, tasavvuri va nutqini, maxsus va umumiy qobiliyatlarini ustirish kuzda tutiladi. Demak, o'qitishning maqsadi uning mazmuni bilan belgilanadi, maqsadi va mazmuniga mos keladigan o'qitish usllari tanlanadi, o'qitishning samarasi esa o'qitishda erishilgan qat'iy ijobiy natijalar bilan tekshiriladi, yani tarixiy bilimning sifati, tarbiya va o'quvchilarning kamol topishi darajasi bilan ulchanadi.

Tarix faniga oid mavzularni tez yod olish va xotirada mustahkam saqlash uchun o'quvchilar bilan "Tezkor savol-javob" o'tkazish kerak. Guruhlar uchun beshtadan aniq va lo'nda javobga ega savollar beriladi. Masalan: 1. Tarix otasi kim? 2. Shiroq qaysi shohga qarshi kurashgan vatanparvar inson edi? 3. Tarixiy obidalarimizdan qaysilarini bilasiz?. 4. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarini sanab o'ting. 5. Boburiylar sulolasi Hindistonda necha yil hukmronlik qilgan? (Izoh: savollar o'quvchilar yoshi va bilim saviyasiga mos holda tanlansa, maqsadga muvofiqdir)

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda, qolaversa mavzularni oson tushunishlariga, bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi-pedagog borki, izlanishlar bilan yangiliklarga intilib darslarni zamonaviy usulda tashkil etsa, o'zi hatto o'quvchilari ham yuksak yutuq va marra larni zabt etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.N.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: TDPU. 2003.
2. Asqarov A. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari.- "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" 1992. № 7-8.
3. Gaffarov YA, Gafforova M. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari.T., 1996.
4. Коллингвуд Р. "Идея истории" Автобиография. М., 1980. С. 484
5. Ходжанов , И. и Гафуров , Ф. 2021. Опыт применения внутрикостного остеосинтеза при разрывах связок дистального межберцового синдесмоза. Общество и инновации. 2, 4 (авг. 2021), 123–126. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4-pp123-126>.